

QADIMGI RIM TILSHUNOSLIGI

Andijon davlat chet tillari instituti ingliz filalogiyasi,

O'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi 102-guruh talabasi

Boymirzayeva Robiya Oybek qizi

Ilmiy maslahatchi: Zaynabiddinova I.M

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Rim tilshunosligi, uning shakllanish bosqichlari va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Rim grammatik maktablari, Notiy, Varro, Donat kabi mashhur tilshunoslarning ilmiy merosi, lotin tili grammatikasi va fonetikasining asosiy tamoyillari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Rim tilshunosligining eyingi Yevropa filologiyasi va grammatik an'analari ko'rsatgan ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qadimgi Rim, tilshunoslik, lotin tili, grammatik maktablar, Varro, Donat, fonetika, grammatika, filologiya.

Аннотация: В статье рассматривается древнеримское языкознание, этапы его формирования и развития. Анализируются грамматические школы Рима, научное наследие таких известных лингвистов, как Нотрий, Варрон и Донат, а также основные принципы латинской грамматики и фонетики. Особое внимание уделяется влиянию римской лингвистики на дальнейшее развитие европейской филологии и грамматических традиций.

Ключевые слова: Древний Рим, языкознание, латинский язык, грамматические школы, Варрон, Донат, фонетика, грамматика, филология.

Annotation: This article examines ancient Roman linguistics, its formation stages, and its development. It analyzes the Roman grammatical schools and the scholarly contributions of prominent linguists such as Notius, Varro, and Donatus. The study highlights the main principles of Latin grammar and phonetics, as well as the significant influence of Roman linguistic tradition on later European philology and grammatical thought.

Keywords: Ancient Rome, linguistics, Latin language, grammatical schools, Varro, Donatus, phonetics, grammar, philology.

Qadimgi Rim filologlarining tilshunoslik faniga qo'shgan hissasi katta emas. Rimgrammatikasi yunon grammatikasining shahobchasi sifatida maydonga keldi. Iskandariya maktabida yaratilgan yunon tili grammatikasi qadimgi rimliklar tomonidan lotin tiliga tatbiq qilindi. Yunon tilidagi deyarli barcha grammatik terminlar lotin tiliga o'girildi. Qadimgi Rim tilshunosligining vakillari: Yuliy Sezar, Mark Terentsiy Varron, Mark Fabiy, Kvintilian, Eliya Donata, Verriy Flakk, Pristsian va boshqalardir.

Yuliy Sezar (eramizdan ilgarigi 100-44 y). Qadimgi Rimning taniqli davlat arbobi, lashkarboshisi va notig'i Yuliy Sezar «Analogiya haqida» nomli grammatik asarini yozdi. U so'z va predmet munosabati masalasida analogiya¹ tarafdori

sifatida tanildi. Mark Terentsiy Varron (eramizdan ilgarigi 116-27 y). Mark Varron 25 kitobdan iborat «Lotin tili haqida» asarini yaratdi. Shu kungacha bu asarning 6 tasi etib keldi. Kitobda analogistlar va anomalistlar orasidagi nazariy tortishuv, munozara mukammal bayon qilinadi. U ham Yuliy Sezar kabi analogiya tarafdori edi. Varron so'z o'zgarishini analogiyaga, so'z yasallishini esa anomaliyaga kiritadi. Eliya Donata (bizning eramizgacha IV asrning o'rtalari). Eliya Donata grammatikaga oid keng qamrovli mashhur asarini yozadi va uni «Grammatika

san'ati» deb nomlaydi. Ushbu asar to'liq va qisqartirilgan variantlarda bizning zamonamizgacha etib kelgan. Verriy Flakk (bizning eramizning boshlari). Rim tilshunosi Verriy Flakk leksikologiya sohasida o'zigacha bo'lgan tadqiqotlarni, tajribalarni va fikrlarni umumlashtirib, katta hajmdagi «Fe'lining ma'nosi» asarini yozdi. Pristsian (VI asr. boshlari). Rim grammatikachisi Pristsian lotin tili bo'yicha

o'z davrining eng katta tadqiqoti hisoblangan «Grammatika san'ati haqida ta'limot» kitobini yaratdi. Qadimgi Rim tilshunosligida Donata va Pristsianning grammatikaga oid yaratgan asarlari lotin tili grammatikasi qurilishining mukammal bayoni sifatida juda ko'p asrlar davomida - o'rta asrlar davri uchun namuna bo'lib xizmat qildi.

Shunday qilib, rimliklar yunonlardan namuna olib, ularga taqlid qilib, lotin tili haqida keng tadqiqot ishlarini olib bordilar. Rimliklarning ona tili bo'yicha grammatikaga oid tadqiqotlari, asosan, yunon tilidan tarjima qilingan bo'lsa - da, ularning grammatikalarida ayrim yangiliklar, yangicha qarashlar uchrab turadi. Jumladan, Rim tilshunoslari yunon tilshunoslaridan farqli holda Rim grammatikasiga alohida stilistikani (uslubshunoslikni) kiritdilar. Rim grammatikachilari so'z turkumiga undovlarni ham kiritdi. Ammo yunon tiliga xos bo'lgan artiklni chiqarib tashladilar. Chunki lotin tilida artikl yo'q edi. Demak, lotin tili uchun ham 8 ta so'z turkumi xos bo'lib qoldi. Rim tilshunoslari son turkumini ikkiga: tub son va tartib songa bo'lib o'rganishdi. Yuliy Sezar lotin tiliga yunon tilida mavjud bo'lmagan ablativ (ajratish) kelishigini kiritdi va kelishiklar sonini oltitaga etkazdi. Rim filologlari grammatikaga oid terminlarni ham yunon tilidagi terminlar asosida yaratdilar. Jumladan, yunon va rim grammatikasiga oid ayrim terminlar ruscha va o'zbekcha tarjimalari bilan quyidagilar: onoma, nomen-imya, ot;

¹ Analogiya haqida «Qadimgi yunon tilshunosligi» bo'limiga qarang.

rema, verbum - glagol, fe'l (qadimgi rus tilida nutq); antonomia, pronomen-mestoimenie, olmosh; nomen adjektivum-imya prilagatelnoe, sifat; epirryoma, adverbium- narechie, ravish; artron, artikulum - artikl; prodesis, praepositio-predlog, old ko'makchi, old qo'shimcha; syndesmos, conjunctio-soyuz, bog'lovchi; interjectio-mejdometie, undov; soneenta, vokales-glasno'e, unlilar; symfona, consonantes - soglasno'e, undoshlar va boshqalar.

Shuningdek, antik (qadimgi) davr tilshunosligining - yunon va Rim tilshunoslik maktablarining jiddiy kamchiliklari ham bor edi. Bu davr tilshunosligi ta'limotida tilga tarixiy yondashish printsiplari yo'q edi. Ya'ni ushbu davr tilshunosligi, hind tilshunosligi kabi, tilning tarixiy taraqqiyotini tushunmas edilar. Ular yunon va

Rim tillaridan boshqa tillarni tadqiq qilmadilar. Ya'ni bir til (yunon yoki Rim tillari) doirasida qoldilar, boshqa barcha tillarni esa yovvoyi, qo'pol til deb hisobladilar. Shuningdek, ular ko'pgina grammatik kategoriyalarni mantiq kategoriyalari bilan qorishtirdilar. Aytilganlarga qaramasdan, yevropa grammatik ta'limoti deyarli XIX asrgacha qadimgi yunon va Rim filologlarining ta'limotlariga asoslanib keldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, qadimgi Rim tilshunosligi lotin tilining grammatik tuzilishini o'rganishga qaratilgan bo'lib, keyingi Yevropa tilshunosligi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Varro, Donat va Prissian kabi rimlik olimlar tilning fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisini tizimli asosda sharhlab, grammatik maktablar faoliyatini shakllantirdilar. Ular yaratgan grammatik an'analar o'rta asrlardan boshlab butun Yevropa bo'ylab asosiy qo'llanma sifatida qo'llanilgan. Shunday qilib, Rim tilshunosligi lotin tilini ilmiy o'rganish bilan birga, zamonaviy filologiya va grammatika fanlarining poydevorini yaratgan ilmiy maktab sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гордон А. Л. История языкознания — Москва: Высшая школа, 1988. (Qadimgi Yunon-Rim tilshunosligi bo'yicha klassik manba)
2. Виноградов В. В. История языкознания XIX–XX веков — Москва: Наука, 1990. (Kirish qismida Rim grammatik an'anasini yoritilgan)
3. Борковский В. И., Меликян А. А. Введение в языкознание — Москва, 2001. (Lotin grammatikasi va qadimgi Rim tilshunosligiga oid bo'limlar mavjud)
4. Торшилов И. Л. История лингвистических учений — Санкт-Петербург, 2015. (Rim grammatik maktablari haqida batafsil ma'lumot)
5. Крысин Л. П. (ред.) Языкознание: Большой энциклопедический словарь — Москва, 2002.